O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 2 iyundagi PQ - 91 son "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to`g`risida"gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 14 iyun 130-son "Oliy ta'lim muassasalari filiallari to`g`risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash to`g`risida"gi buyrug`i hamda O`zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining 2005 yil 21 iyul 07-8/2015-son taqdimnomasini amalga oshirish maqsadida 2005 yil 23 iyuldan Farg`ona shahrida Toshkent axborot texnologiyalari universitetining mintaqaviy filiali sifatida tashkil etilgan.

Filialda jami 85 ta professor-o`qituvchi faoliyat ko`rsatib, shundan: 22 nafar fan nomzodi hamda 63 nafar ilmiy daraja va unvonga ega bo`lmagan pedagoglar faoliyat ko`rsatadilar. O`qituvchilar safida kafedra professorlari: dotsentlar D.Halilov, N.Usmonov va boshqalarning nomlarini alohida hurmatga sazovor bo`lib, talabalarga chuqur bilim beradilar.

**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg`ona filiali quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bakalavrlar tayyorlaydi:**

- Kompyuter injiniringi (Kompyuter injiniringi)
- AKT sohasida kasb ta’limi
- Telekommunikatsiya texnologiyalari
- Xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi (elektron va kompyuter texnikasi)

**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg`ona filiali quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha magistrlar tayyorlaydi:**

- Kompyuter injiniringi (“Kompyuter injiniringi tizimlarini loyihalash”)
- Kasb ta’limi (axborot va multimedia texnologiyalari bo'yicha)

**Ilmiy - tadqiqot ishlari**

Filialda 2010-2017 yillarga mo`ljalllangan ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash rejasi ishlab chiqilgan. Mazkur reja asosida ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda. Ilmiy tadqiqot ishlari natijasi sifatida professor-o`qituvchilar tomonidan 25 ta elektron ishlanma, 29 ta elektron darslik, 40 dan ziyod taqdimot, virtual laboratoriya uchun 15 ta stend tayyorlangan. Bundan tashqari, 4 ta O`zbekiston Davlat patenti olindi, 2 ta ilmiy monografiya yozildi, 190 dan ziyod ilmiy maqolalar

va maqola tezislari e'lon qilindi. Maqolalarning ko’pchiligi xorijiy davlatlar ilmiy nashrlarida chop etilgan.

**Bituruvchilar ish faoliyati**

Filialda 2012-2013 o`quv yili yakunlanishi bilan 279 nafar bitiruvchilarga hayotga yo`llanma berildi. Ular mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xalq ta'limi, oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari, bank va moliya tuzilmalarida faoliyat yuritadilar.

**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg`ona filiali murojaat ma'lumotlari:**

**Direktor:** Texnika fanlari nomzodi, Mirzakarimov Baxtiyor Abdusalomovich

**Manzil:** Farg'ona shahar, 150118, Mustaqillik ko'chasi, 185-uy

**Telefon:** 8 (373) - 226-82-09

**Faks:** 8 (373) - 226-82-09

**Veb sahifa manzili:** www.tatuff.uz

**E-mail:** info@tatuff.uz

2017-04-17 15:35:34